



MARKAZIY OSIYO XALQLARINING ERKAKLAR MILLIY BOSH KIYIMIDA UCHRAYDIGAN NAQSH ELEMENTLARI TAHLILI

Kurbanova Nilufar Abdumutalib qizi

Farg‘ona shahar 3-maktab tasviriy san‘at fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada markaziy Osiyo xalqlarining uyg‘un xolda rivojlangan madaniyatidagi o‘ziga bo‘lgan xoslik, XX asrda qozoq, qirg‘iz, o‘zbek, tojik va turkman xalqlarining bir qarashda o‘xshash ammo bir biri bilan ramziy ma’nolari bilan ajirilib turuvchi erkaklar bosh kiyimida uchraydigan naqsh elementlarining ramziy ma’nolari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Naqsh, naqsh elementlari, ramz, ramziy ma’no, xalq amaliy san’ati do‘ppido‘zlik, “Qo‘shqar mo‘yiz”, “qalampir”, “qaynar”, “amulet”

Аннотация. В статье дана характеристика гармонично развитой культуры народов Средней Азии, мужчин казахского, кыргызского, узбекского, таджикского и туркменского народов в XX веке, на первый взгляд похожих, но отличающихся друг от друга символикой. Смыслы выделены символические значения элементов узора, встречающихся в головном уборе.

Ключевые слова. Узор, элементы узора, символ, символическое значение, народное искусство шапочного изготовления, «Кошхар Мойиз», «Калампир», «Кайнар», «амулет».

Annotation. In the article, the characteristics of the harmoniously developed culture of the peoples of Central Asia, the men of the Kazakh, Kyrgyz, Uzbek, Tajik and Turkmen peoples in the 20th century, who at a glance are similar but differ from each other with symbolic meanings the symbolic meanings of the pattern elements found in the headdress are highlighted.

Key words. Pattern, elements of pattern, symbol, symbolic meaning, folk art of hat making, “Koshkhar Moyiz”, “qalampir”, “qaynar”, “amulet”

KIRISH

Markaziy Osiyo madaniyati jahon madaniyati tarixida muhim o‘rin tutishi va o‘rta asrlardagi madaniyatini butun dunyo tomonidan munosib baholagan. Markaziy Osiyo madaniyati g‘arb va Sharqning buyuk madaniyat elementlarini bir butunlikda uyg‘unlashtirib ifodalagan holda o‘ziga xos individuallik kasb etadiki, bu xususiyat keyingi taraqqiyot uchun ham negiz bo‘lib qoldi.

TAHLIL VA METODOLOGIYA

Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatining vujudga kelishi sharoitlarini belgilashda dastavval, uning jug‘rofiy o‘rni va tabiiy vositalariga e‘tiborni qaratish lozim bo‘ladi.

Madaniyatshunoslik har qanday madaniyatning shakllanishida o‘ziga xos joy manzarasi, iqlimi, biosfera omillarining ahamiyati borligiga alohida e’tibor beradi. Markaziy Osiyo mintaqasining tabiati turli xilligi bilan katta farq qiladi. Bu yerda serhosil vodiylar va vohalar, sersuv daryolar, qaqroq cho‘llar, dashtu adirlar, Pamir va Tyan-Shan tog‘ining baland muzofatlari bilan yonmayon joylashgan. Bunday xususiyat dehqonchilik, chorvador, tog‘da yashovchi qabila va xalqlar xo‘jalik tarzi va o‘ziga xos madaniyatlarining shakllanishi uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Markaziy Osiyoning serhosil vodiysi, cho‘l va dashti, tog‘larida yashovchi aholining turmush sharoitidagi farqlar turli xo‘jaliklarning ertaroq paydo bo‘lishi o‘ziga xos madaniyatlar shakllanishiga olib keldi. Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyati juda qadimiy bo‘lib, uning tarixi bir necha ming yillarni o‘z ichiga oladi. Bironta xalq madaniyati o‘z mamlakati doirasidagina, tor darajada rivojlana olmaydi. Aksincha, boshqa xalqlar madaniyati bilan o‘zaro aloqada rivojlanadi. Huddi shunday, bugungi kunda markaziy osiyo davlatlari bo‘lmish O‘zbekiston, Turkmaniston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston hamda Turkmaniston xalqining ham madaniyati o‘zaro tasir doirasida rivojlandi. Markaziy Osiyo xalqlari bir-biridan go‘zal naqsh nigorlarga g‘oyatda boy. Ulardan biz eng oddiydan tortib eng murakkabigacha bo‘lgan juda kichkina xajmdan tortib monumental darajagacha yuksak san’at namunalarini ko‘rishimiz mumkin. Nafislik bilan uyg‘unlashgan madaniyat o‘ziga xosligi bilan ham ajralib turadi. Masalan: Badiiy hunarmandlikning bir sohasi hisoblangan do‘ppidozlikni olaylik. Do‘ppi baxmal, sidirg‘a shoyi, satindan bichilib, ip, ipak, zar iplar bilan kashta tikiladi. Kashta tikib bezatilgan bo‘laklar (tepa, kizak) ga astar yopishtirilib mayda nozik chokda qaviladi, qaviklar orasiga paxta yoki qog‘ozdan pilta uriladi. So‘ng tayyor bo‘laklar bir-biriga ulanadi, kizak atrofi jiyak (tasma) bilan hoshiyalanadi. Yelimlangan do‘ppilar taxtakachga qo‘yiladi. Tayyor bo‘lgan do‘ppi bichimiga qarab murabba, konussimon (dumaloq) shaklga ega bo‘ladi. Har bir davlatning do‘ppilarini yaralish bosqichlari deyarli bir hil. Unda 5 ta davlatning do‘ppilaridagi o‘zaro farq nimada? degan savol tug‘ilishi tabiiy. Albatta bu ularning bezagi, yani bezak berish uchun tushirilgan naqsh elementlaridir. Bir qarashda O‘zbekiston, Turkmaniston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston hamda Turkmaniston naqshlari bir birlariga o‘xshaydi. Ammo naqsh ichiga kiradigan bo‘lsak, undagi naqsh elementlari chizilishi ularning ma’no-mazmuni, qo‘llanilishi hamda ularning ramziy ma’nolari tubdan farq qiladi. Ramz – arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, “Ishora qilmoq”, degan ma’noni anglatadi va tabiatni, voqelikni, hayotimizdagi quvonch va tashvishlarni, do‘st va dushmani, yaxshilik va yomonlikni naqsh elementlari, turli jonli chiziqlar va ranglar orqali tasvirlash demakdir.



Qozoq milliy bosh kiyimi



Qirg‘iz milliy bosh kiyimi



O‘zbek milliy bosh kiyimi



Tojik milliy bosh kiyimi



Turkman milliy bosh kiyimi

NATIJA

O‘zbek va tojik milliy bosh kiyimlarida “qalampir” ni ko‘rishimiz mumkin. Ikkala xalq uchun ham qalampir- yomon ko‘zdan saqlovchi ma’nolarini beradi. Ammo ushbu belgi qirg‘iz va qozoq xalqida “Qaynar” deb atalib (buloq) sokinlik ma’nosini beradi. Ularning bosh kiyimlarida “Qoshqor muyizi” ya’ni “qo‘chqor shohi” deb yuritiluvchi naqsh elementi tasvirlangan. Uning ramziy ma’nosi qozoq xalqi uchun- Hayot inomi, kuch qudrat bo‘lsa, huddi shu naqsh elementi qi’g‘iz xalqining erkaklar bosh kiyimiga “boylik” to‘kin hayot” ma’nosida tushiriladi. Turkman millatining erkaklar bosh kiyimida biz asosan geometrik shakl uchburchaklarni ko‘rishimiz mumkin. Uchburchak shakli “amulet”- “tumor” ya’ni “yomon ko‘zdan saqlovchi, turli ofatlarni qaytaruvchi” degan ma’noda qo‘llaniladi.

XULOSA

Naqshlar faqatgina bezak emas balkim , doimo so‘zlay olmagan ichki tuyg‘ularning ramziy ifodasi hamdir. Faqatgina bu ifoda vositasi turli xalq va elatlarda turlicha ramziy ma’nolarni o‘zida aks ettirgan. Biror bir xalqning amaliy san’ati tarixini o‘rganishdan avval naqqoshlik san’atini, naqqoshlik san’atini o‘rganishdan avval esa naqsh elementlarini va ularning ramziy ma’nolarini chuqurroq o‘rganish darkor. Tarixga nazar soladigan bo‘lsak, ko‘plab yirik ma’lumotlarni aynan kichik elementlar yordamida aniqlanganligini bir necha bor guvohi bo‘lganmiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1.S.Bulatov “Xalq amaliy bezak san’ati” - T.: 1991.
2. A.Xakimov «Prikladnoe iskusstvo Uzbekistana: traditsii i innovatsii» T.: 2013.
3. Azimov I. O‘zbekiston naqshu nigorlari. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1987.
4. Жанибеков У. Культура казахского ремесла. Алматы, 1982.
5. Маргулан А.Х. Казахское народное прикладное искусство. –Алматы, 1987.
6. Мальчик, А. Ю. История кыргызского народного прикладного искусства: эволюция кыргызского орнамента с древнейших времен до XX в. - Бишкек, 2009.
7. Мальчик, А. Ю. Роль орнамента в формировании архитектуры Кыргызстана (генезис, эволюция, национальные традиции) - Бишкек.2011
- 8.Ý.Kakaýew.Şekillendirir sungaty we ony okatmagyň usulyýeti. Aşkabat "Ylym" neşirýaty.2011